

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA HAMKORLIK STRATEGIYALARI ASOSIDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISHNING MUHIM YO'NALISHLARI

Ashurova Dildora Gafurovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ВАЖНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА

Ашурова Дилдора Гафуровна
Докторант Бухарского государственного педагогического института

THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON COLLABORATIVE STRATEGIES

Ashurova Dildora Gafurovna
Doctoral student of the Bukhara State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qituvchisining hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, qo'llash va baholash, shuningdek xorijiy tillarni o'qitishda ilg'or o'qitish metodikasi va zamonaviy interfaol usullarni qo'llashning muhim yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, yetuk mutaxassis, strategiya, zamonaviy o'qituvchi, muammoli ta'lim.

Аннотация: В данной статье проанализированы важные направления организации, применения и оценки совместной деятельности преподавателя английского языка в высших учебных заведениях, а также применения передовых методик преподавания и современных интерактивных методов в обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: сотрудничество, зрелый специалист, стратегия, современный учитель, проблемное образование.

Abstract: This article analyzes important areas of organization, application and evaluation of the joint activities of an English teacher in higher educational institutions, as well as the use of advanced teaching methods and modern interactive methods in teaching foreign languages.

Keywords: cooperation, mature specialist, strategy, modern teacher, problem education.

KIRISH. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kun sayin jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, shu bois yurtimizda xorijiy til o'qitiladigan ta'lim muassasalarining soni ham ortib bormoqda. Modomiki, bunday ilm maskanlari ko'payib borayotgan ekan, demak o'z-o'zidan ushbu oliy ta'lim muassasalarida nafaqat xorijiy tillarni chuqur biladigan, balki ilg'or o'qitish metodikasiga ega, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan yaxshi tanish bo'lgan hamda darslarda zamonaviy interfaol usullarni qo'llay oladigan tajribali pedagog kadrlarni yetkazib berishdek muhim masala oliy ta'lim tizimidagi asosiy masalalardan biri bo'lmog'i kerak. O'qituvchi, eng avvalo, o'zi o'qitadigan fanni yaxshi bilishi kerak. Chet tili bu xorijiy mamlakat tilidir, respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaralib, yoshlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamolga yetishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini yuzaga chiqarish, qalbida yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa'y-harakatlar zahirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir [1].

METODOLOGIYA. Xorijiy tilini hamkorlik texnologiyalari asosida o'qitishda masalalari D. Nunan [2], J. Uillis [3], J. Richards va T. Rodjers [4], V.A. Buxbinder [5], S. Saidaliyev [6]lar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Ingliz tilini samarali o'qitish uchun mashqlarni to'g'ri tizimlash va munosib ketma-ketlikda bajarish lozim, bu esa, albatta, ilmiy izlanishlar asosida amalga oshiriladi. Ingliz olimi D.Nunan chet tilini o'rganish uchun topshiriqlarni ularning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi ikki turga bo'lishni taklif qiladi:

1) autentik mashqlar - real hayotda tilni amaliy qo'llashga mo'ljallangan topshiriqlar;

2) pedagogik mashqlar - talabalarning bilimni maqsadli ravishda takomillashtirishga mo'ljallangan topshiriqlar (8).

Ko'pgina manbalarda olimlar jumladan T. Pika ingliz tilini o'qitishni quyidagicha tasniflashgan:

1) Jigsov asosidagi o'qitish (Jigsaw tasks) — talabalar aralashtirilgan ma'lumotning turli qismlarini birlashtirib, uni yaxlit holga keltirishlari lozim;

2) ma'lumot tushirib qoldirish asosidagi o'qitish (information gap) — talabalarning birinchi guruhida ma'lumotning bir qismi bor bo'lsa, ikkinchi guruhda to'liq shaklda bo'ladi. Ma'lumot to'liq bo'lishi uchun birinchi guruh a'zolari tushirib qoldirilgan bo'shliqlarni ikkinchi guruhdan ma'lumotlarni so'rab to'ldirishlari lozim;

3) muammoni hal qilish asosidagi o'qitish (Problem-solving) — talabalarga muammo beriladi va ular buning yechimini topishlari lozim bo'ladi;

4) qaror qabul qilish asosidagi o'qitish (decision-making) — bunday topshiriqni bajarishda ham muammo hal qilinadi, lekin muammoni hal qilish mashqlaridan farqi shundaki, talabalar yechim sifatida har xil variantlardan birini tanlashi kerak bo'ladi. Ya'ni talaba/talabaga taklif qilingan yechimlar variantlari beriladi;

5) fikr almashuvchi o'qitish (Opinion exchange) — talabalar muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini almashadilar (9, 234).

E.A. Lagay ham chet tilini o'qitishni quyidagicha uch turga ajratib, foydalanish maqsadga muvofiq deb ta'kidlaydi:

- 1) reseptiv mashqlar: a) tayyorlov, b) analitik, d) imitativ;
- 2) reproduktiv mashqlar: a) sintetik, b) yarimkonstruktiv;
- 3) produktiv mashqlar: a) konstruktiv, b) transformatsion (7, 91).

J. Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi" kitobida "Vulf Abramovich Buxbinder esa informatsion, operatsion va motivatsion mashqlar haqida tadqiqot olib borgan. Sodda qilib, ularni bilim, ko'nikma, malaka berish mashqlari, deyish joizdir", — deb yozadi. Ya'ni information mashqlar bu bilim beruvchi mashqlar bo'lsa, operatsion mashqlar talabada ko'nikmani shakllantiradi. Motivatsion mashqlar esa o'z navbatida o'rganuvchining til bilish malakasini rivojlantiradi [7].

TADQIQOT NATIJASI. Ingliz tili darslarida hamkorlik ko'nikmalariga ega bo'lish uchun Rochel va Tea Sley tomonidan quyidagi tavsiyalar keltirilgan:

aniq maqsadlar, rollar va mas'uliyatlarga ega bo'lgan kooperativ o'quv guruhlarini yarating; maktabda tabaqalashtirilgan maqsadlar va qo'llab-quvvatlashlar bilan ijobiy xulqatvorni rivojlantirish dasturlarini yarating;

talabalarga tengdoshlari yoki o'qituvchilardan qachon qanday yordam so'rashni o'rgatadigan ko'rsatmalar bering;

tengdoshlarning bir-biriga o'zaro ta'siri va bir-birini qo'llab-quvvatlashi uchun muhim bo'lgan imkoniyatlarni rag'batlantiring va qo'llab-quvvatlang;

manfaat birligi asosida yoki bir xil faoliyat bilan shug'ullanadigan talabalar jamoalarini shakllantiring;

guruh ishi uchun me'zonlar yarating (masalan, rubrikalar, normalar);

faoliyatning maqsadi va bu nima uchun muhimligini tasavvur qiling;

harakat va jarayonning rolini ta'kidlab, o'rganilishiga rahbarlik qiling; moslashuvchan vositalar va tayanchlar yordamida talabalarni yuksak umidlar sari yetaklang[5].

Muvaffaqiyatli hamkorlikka erishish uchun zamin yaratish oliy ta'lim muassasalarida shaxsiy yutuqlar ustivor bo'lib, ular eng yuqori o'rinda turadi, hamkorlik, ko'pincha talabalar uchun odatiy hol emas, shuning uchun talabalardan hamkorlikdagi vazifalarni qabul qilish va ularni qanday qilib muvaffaqiyatli bajarishni o'rganish anchagina vaqtni talab etishi mumkin. Biroq hamkorlikda ta'lim olayotganda to'siqlarni qat'iyatlilik bilan yengish, izchil harakatda bo'lish va ijobiy ta'lim muhitini yaratish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. O'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, qo'llash va baholashda izchil va qat'iyatli bo'lishi talabalarining amalga oshiradigan vazifaning maqsad va tartiblari haqida aniq tushunchaga ega bo'lishini va ularning muvaffaqiyati uchun potensialni ko'paytirishni taminlaydi [1].

Oliy ta'limda ingliz tilini oqitish jarayonida hamkorlikdagi guruh ishida muvofiqlikni o'rnatish quyidagi tamoyillarga asosida amalga oshiriladi:

1. Hamkorlikni boshlashdan oldin, talabalarni ishtirok etishga rag'batlantirilganligiga ishonch hosil qilish;

2. Asosiy qoidalarni aniq belgilab olish: barcha talabalar ishtirok etishi zarurligini va barcha g'oyalar inobatga olinishi kerakligini uqtirish;

3. Talabalarni hamkorlikka o'rgatish, ularning o'qituvchi bilan va o'zaro hamfikir bo'lishlariga erishish;

4. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining turli shakllarini tayyorlash va amalda qo'llash mashqlarini bajarish;

5. Har bir talaba ayrim turdagi hamkorlikda o'qitish mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlariga hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni kiritish mumkin. Muvaffaqiyatli hamkorlikka erishish uchun kooperativ va kollaborativ o'quv guruhlarini yaratish ustuvor maqsaddir. Bunday guruhlarda ishlash uchun talabalar aniq maqsadga, aniq taqsimlab berilgan rollar va mas'uliyatlarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun, avvalo, kollaborativ va kooperativ hamkorlik o'rtasidagi farqni aniqlash muhimdir. Tadqiqotchilardan Smit izohlaganidek, kooperativ hamkorlikni "umumiy maqsadlarni bajarish uchun birgalikda ishlash" deb tushunadigan bo'lsak, kollaborativ hamkorlikdagi ta'limni McInnerney va Robert "ikki yoki undan ortiq guruhda umumiy maqsadga erishishni ko'zda tutib ishlash va har bir shaxsning butunlikka qo'shgan hissasini hurmat qilish usulidir" deb tushuntirishgan. Roschel va Teasley (1995) kooperativ hamkorlikni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash orqali amalga oshiriladigan vazifa sifatida tavsiflaydi, bunda "har bir kishi muammoni hal qilishning bir qismi uchun javobgardir" va ular hamkorlikdagi ishni "hal qilish uchun kelishilgan harakatlarda ishtirokchilarning o'zaro ishlashi" deb bilishadi» [5]. Ushbu yondashuvlarning guruhlarda ishlashdan asosiy farqi shundaki, hamkorlik ko'proq yakuniy mahsulotni yaratish uchun birgalikda ishlashga qaratilgan, muvaffaqiyatli hamkorlik esa ishtirokchilardan bilim yaratish jarayonida uni baham ko'rishni talab qiladi [1].

Boshqacha aytganda, agar barcha ishtirokchilar o'zlariga berilgan vazifaning qismlarini alohida-alohida bajarib, ularning natijalarini stol ustiga jamlasalar, bunday holda kooperativ hamkorlikka erishiladi, kollaborativ hamkorlikda esa, aksincha, mahsulot ishlab chiqarish uchun bevosita shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni nazarda tutadi va muzokaralar, munozaralar hamda boshqalarning nuqtayi nazariga moslashishni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, talabalarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. Talabalar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir talabaning qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada talabalarining bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir talabaning kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina talabalar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

Hamkorlik pedagogikasida esa talaba o'z o'quv faoliyatining sub'yekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va talaba pedagogik jarayonning sub'yektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan talabalar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo'lib, u an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'yekti, talaba esa ob'yekti deb qaraladi. Hamkorlikda o'qitish talabaning ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- talabaning o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- talabalarda materialni o'rganishga ishtiyok uyg'otadi;
- talabalarining o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- talabalarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonini takomillashtirish va uni talaba shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. Talabalar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.

2. Talabalar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. Talabalar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. Talabalar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish, talabalarining bir-birlariga ko'maklashishlari talab etilishini qisobga olgan holla tuzilgan bo'ladi.

5. Talabalar o'z ishlari iqtisodiy yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardirdar. Hamkorlikda o'qitish talabada quyidagilarni shakllantirishni ko'zda tutadi:

- har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish;
- shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash;
- har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish;
- o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;
- tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirish.

MUHOKAMA. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar ilgari surgan yangi g'oyalari va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday hatti-harakat o'qituvchining talabaga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi, talabalarining faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi [8].

Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, G'.G'ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Y.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan [9].

Hamkorlik ta'limi quyidagi maqsadli yo'nalishlarga asoslanadi:

- pedagogik talabni inkor etgan holda ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va uslubiy mavjud bo'lib, quyidagicha guruhlanadi:

- tashkiliy-pedagogik asoslar – o'quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o'zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o'quv mashg'uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit imkoniyatlarini belgilash va amalga oshirish;

- psixologik asoslari – o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, dars mazmunidagi tushuncha, atama va boshqa shartlarning o'quvchi uchun sodda va tushunarli bo'lishi;

- uslubiy asoslari – mashg'ulot uchun zarur vositalarni oldindan tayyorlash, ularning talab darajasida, sifatli bo'lishni ta'minlash;

- muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari talabalarning kreativ (tadqiqotchilik xarakteriga ega, ijodiy tafakkurni jadal ravishda rivojlantirish ta'limi) qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum. Talabalarda kreativlik qobiliyatining rivojlanishiga quyidagi fazilatlar katta ta'sir ko'rsatadi:

- ijodiy fikrlash;

- talaba qadr-qimmatini tan olish;

- atrof-muhit ta'siriga bolalar sezgirligini rivojlantirish; g'oyalar va obyektlarni erkin egallashga yo'naltirish;

- ijodiy jarayonlar to'g'risida asoslangan axborot bera bilish ko'nikmasini shakllantirish;

- tanqidni to'g'ri asoslab bera bilishni rivojlantirish;

- o'zini hurmat qilishni rag'batlantirish.

Hamkorlikda o'qitishga asoslangan pedagogik jarayonda yuqorida qayd etilgan g'oyalar asosida shaxsga yo'naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta'lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta'lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish emas, balki unga o'z o'zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat [7].

Oliy ta'limda hamkorlikda o'qitish va o'rganish faoliyati borasida xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, Biggs, J. & Tang, C. tadqiqotlarida "Ma'ruzadan foydalanish ta'lim muassasalarida o'qitishning asosiy usuli bo'lib qolsa-da talabalar o'rganishda faol bo'lishlari kerakligi to'g'risida konsensus mavjud, qaysiki an'anaviy o'qitish uslublariga mos kelmasligi mumkin" deb ta'kidlagan bo'lsa, Biggs va Tang, Ramsden "Bu global va raqamli o'zaro bog'langan dunyoda innovatorlar va ijodiy fikrlovchilarning keyingi avlodini rivojlantirish uchun talabalarni tanqidiy fikrlash, shaxslararo muloqot, hamkorlik ko'nikmalari va global xabardorlik kabi XXI asr kompetensiyalari bilan jihozlashga ehtiyoj ortib bormoqda, ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ta'lim muassasalari o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yoqish va talabalarga faol o'rganish imkoniyatini berish uchun innovatsion o'qitish usullaridan foydalanishni ko'rib chiqishlari kerak" deb ta'kidlagan [10].

Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Hamkorlikda o'qitish ushbu maqsadga erishish uchun asosiy o'qitish va o'rganish strategiyalaridan biri hisoblanadi [11].

Hamkorlikda o'qitish ayniqsa hozirgi pedagogika va zamonaviy o'qitishda qadrlansa-da, oliy ta'limda hamkorlikda o'qitish haqida ma'lumot berish uchun juda kam adabiyotlar yozilgan, asosan, ushbu tadqiqot sohasining tarixiy ko'rinishini taqdim etish uchun oliy ta'limda hamkorlikda o'qitish bo'yicha qanday tadqiqotlar olib borilganligini birlashtirish kerak. Hamkorlikda ta'lim ba'zan birgalikda o'rganish bilan bir-birining o'rnida ishlatilsa ham atamalar turli narsalarni anglatadi [12].

Hamkorlikdagi ta'lim maqsad va tuzilma bo'yicha butunlay o'z-o'zidan shakllanadi, bunda talabalar o'z o'rganishlari uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar [13]. Oddiy qilib aytganda, talabalar ko'proq avtonomiya tuyg'usiga ega va o'qituvchilar faqat minimal ko'rsatmalar beradi, boshqa tomondan, hamkorlikda o'qitish ta'limning yanada aniqlangan, tuzilgan shakli bo'lib, unda o'qituvchi har bir o'quvchining faol ishtirokini talab qiladigan yuqori darajada tuzilgan va yaxshi tashkil etilgan o'quv muhitini ehtiyotkorlik bilan yaratib, «topshiriqni belgilovchi» bo'lishi kerak. O'qituvchining asosiy vazifasi maqsadlarni belgilash, vazifalarni rejalashtirish va tuzish va umumiy maqsad sari birgalikda ishlash uchun talabalarni guruh rollariga ajratishdir [10].

1978 yilda Vygotskiy tomonidan ijtimoiy konstruktivizmning dastlabki targ'ibotidan beri hamkorlikda o'qitish pedagogik psixologlar va amaliyotchilar tomonidan ko'p muhokama qilingan mavzu bo'lib kelgan, shuningdek boshqalar bilan ijtimoiy o'zaro ta'sir odamlar mustaqil ravishda erisha olmaydigan bilim va ma'lumotlarni o'zlashtirishda katta rol o'ynaydi deb fikr bildirgan [12].

XULOSA. Ingliz tili fanini o'qitishda hamkorlik strategiyalarni loyihalashni amalga oshirish uchun beshta element zarur:

- ijobiy o'zaro bog'liqlik,

- yuzma-yuz o'zaro ta'sir,

- shaxslararo va kichik guruh ko'nikmalari, individual va guruhli javobgarlik va guruhni qayta ishlash (guruhli ishlov berish)

Birinchidan, ijobiy o'zaro bog'liqlik o'quvchilarning umumiy vazifalarni bajarish uchun bir-biriga muhtojligini anglatadi. Talabalar o'z faoliyatining o'zi va jamoa a'zolari tomonidan o'zaro bog'liqligini, shuningdek, bir-birining sa'y-harakatlaridan foyda olishini tushunganlarida buni amalga oshirish mumkin. Bu kichik guruhlardagi talabalar o'rtasida bir-birlaridan foyda olishga yordam berish va rag'batlantirish uchun "rag'batlantiruvchi shovqin" ga olib keladi. Talabalarga guruh maqsadlarida o'z hissalarini qo'shishlariga yordam berish uchun, talabalar guruhning barcha a'zolari umumiy taqdirga ega ekanligini bilishlari uchun vazifa tuzilishi kerak.

Ikkinchidan, hamkorlikda o'qitish har doim shaxsan o'tkazilishi kerak. Eng asosiy darajada, yuzma-yuz muloqot bilim almashish uchun eng yaxshi vositadir, chunki u talabalarga o'zaro munosabatda bo'lish, shaxsiy muloqotni o'rnatishga yordam

beradi. Bundan tashqari jamoaning boshqa a'zolarining tushuntirishlarini, puxta o'ylashlarini, noto'g'ri tushunchalarni aniqlash yoki ularni tushuntirish va istiqbollarni muhokama qilish imkoniyatini beradi. Bunday jalb qilish jarayonida yangi g'oyalar va bilimlar shakllanadi va ma'lumotlar qayta tashkil etiladi va qayta tiklanadi, bu esa o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini yaxshilashga imkon beradi

Bundan tashqari, yuzma-yuz muloqotlar tana tilini va og'zaki bo'lmagan signallarni ko'ra olmaslik natijasida yuzaga keladigan keraksiz noto'g'ri aloqalarni kamaytirishi mumkin.

Uchinchidan, hamkorlikda o'qitish talabalardan bir guruhda ishlashni talab qiladi, bu erda shaxslararo va kichik guruhlardagi ko'nikmalar bir-birining ijtimoiy o'zaro ta'sirini engillashtirish uchun juda muhimdir. Hamkorlikda o'qitish qo'llaniladigan sinflarda o'qituvchilar o'quvchilarga muloqot, etakchilik, ishonch, qaror qabul qilish va nizolarni hal qilish kabi shaxslararo ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak. Buning sababi shundaki, guruhdagi talabalar boshqa guruh a'zolarining o'zlaridan farq qilishi mumkin bo'lgan turlicha qarashlariga duchor bo'ladi. Yaxshi sotsializatsiya ko'nikmalariga ega bo'lish orqali ular uchun ishonch va munosabatlarni mustahkamlash osonroq bo'ladi.

To'rtinchidan, individual va guruh mas'uliyati guruhdagi har bir a'zo guruh vazifalariga qo'shgan hissasi uchun javobgar ekanligini anglatadi. Guruh o'z maqsadlariga erishish uchun javobgar bo'lishi uchun har bir talaba o'z vazifasini bajarishi kerakligiga shubha yo'q. Guruh maqsadlari o'quvchilarni bir-birlarining muvaffaqiyatiga hissa qo'shish orqali bir-biriga yordam berishga undash uchun zarur bo'lsa-da, individual hissani baholash muhimdir. Nihoyat, guruhni qayta ishlash guruh a'zolaridan vaqti-vaqti bilan o'z harakatlari haqida fikr yuritishlarini, jamoa a'zolarining ishtirokini yaxshilashga yordam berish uchun guruh a'zolaridan fikr-mulohazalarni olishlarini, ijtimoiy ko'nikmalarni keskinlashtirishni va hamkorlik ko'nikmalarini mashq qilishni talab qiladi. Guruhni qayta ishlash, agar ishlayotgan sohalar mavjud bo'lsa, guruhning ruhiy holati guruh faoliyatiga ta'sir qilmasligi uchun ularni tezda tuzatilishini ta'minlash uchun va taraqqiyotni guruhda aks ettirish uchun vaqt beradi [14].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurova Dildora. (2023). HAMKORLIK STRATEGIYALARI VOSITALARIDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISH YO'NALISHLARI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 945–954. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1269>.
2. Nunan D. *Designing Tasks for the Communicative Classroom*, New York: Cambridge University Press, 1989, 211 p.
3. Willis J. A flexible framework for task-based learning. In J. Willis and D. Willis (eds.), *Challenge and Change in Language Teaching*, Oxford: Heinemann, 1996, pp. 52–62.
4. Richards J.C. and Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching, A description and analysis*, Cambridge: Cambridge University Press, 2010, 254 p.
5. Bukhbinder V.A. *Obshaya metodika obucheniya inostrannym yazykam: khrestomatiya (General Methods of Teaching Foreign Languages: a Textbook)*, Moscow, 1991, pp. 91–99.
6. Saidaliyev S. *Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar (Essays from the Methodology of Teaching a Foreign Language)*, Namangan, 2004, 238 p.
7. J. Jalolov. *Ingliz tili o'qitish metodikasi, «O'qituvchi» nashriyoti*. Toshkent 2011 y.
9. Safin D.V., Musina R.G. Ta'lim berish va o'qishning interaktiv usullari. *O'quv qo'llanma. 5-modul*. - T.: 2007, 43-b.
10. Johnson, D. W., Johnson, R. T., Roseth, C., & Shin, T. S. (2014). The relationship between motivation and achievement in interdependent situations. *Journal of Applied Social Psychology*, 44(9), 622-633. doi: 10.1111/jasp.12280.
11. Felder, R. M., & Brent, R. (2007). Cooperative learning. In P. A. Mabrouk (Ed.), *Active learning: Models from the analytical sciences* (pp. 34-53). Washington, DC: American Chemical Society.
12. Millis, B. J., & Cottell, P. G. (1998). *Cooperative Learning for higher education faculty*. Phoenix, AZ: Oryx Press
13. Patesan, M., Balagiu, A., & Zechia, D. (2016). The benefits of cooperative learning. *International Conference Knowledge-Based Organization*, 22(2), 478-483.
13. Barkley, E. F., Cross, K. P., & Major, C. H. (2005). *Collaborative learning techniques. A handbook for college faculty*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
14. Ifeoma, O. E., Ngozi, O. V., & Nkem, E. D., (2015). Insights on application of Johnson and Johnson's five elements of cooperative learning to health education curriculum delivery. *International Journal of Innovative Research and Development*, 4(8), 356-361.
15. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. Олий talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloeva Feruza Fatulloevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.